

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDURAXMONOVA DILRABOXON KODIRJONOVNA**

**“BOBURNOMA”NING MILLIY VA LISONIY-USLUBIY XOSLIGINI  
NEMISCHA TARJIMADA AKS ETTIRISH MUAMMOLARI  
(HELMUT DALOV TARJIMASI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Abduraxmonova Dilraboхon Kodirjonovna**

“Boburnoma”ning milliy va lisoniy-uslubiy xosligini nemischa tarjimada aks ettirish muammolari (Helmut Dalov tarjimasi misolida)..... 3

**Абдурахмонова Дилрабохон Кодиржонова**

Проблемы отражения национальных и лингвостилистических особенностей «Бабур-наме» в немецком переводе (на примере перевода Гельмута Далова)..... 25

**Abdurakhmonova Dilrabokhon Kodirjonovna**

Problems of reflecting the national and linguistic-stylistic characteristics of “Boburnoma” in the German translation (on the example of Helmut Dalov’s translation) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDURAXMONOVA DILRABOXON KODIRJONOVNA**

**“BOBURNOMA”NING MILLIY VA LISONIY-USLUBIY XOSLIGINI  
NEMISCHA TARJIMADA AKS ETTIRISH MUAMMOLARI  
(HELMUT DALOV TARJIMASI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2PhD/Fil4841 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.namdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirildi.

**Ilmiy rahbar:**

**Sadikov Zoxid Yakubjanovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayeva Raviyaxon**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sidiqov Qosim Abilovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "19" "09" soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. tel.: (+99869228 -85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namd.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (1835 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. tel.: (+99869228 -85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "07" "09" kuni tarqatildi.  
(2025-yil "19" "09" dagi № 7 raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.I.Ziyayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**N.A.Mamadjanova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Q.A.Sidiqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari nomzodi, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarjimashunoslik sohasining rivojlanib, so‘nggi yillarda tarjima maktablarining yangi avlodini o‘ziga xos vakillari shakllanayotgani bugungi yoshlarni dunyoviy bilimlarni puxta egallashlari uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Filologiya ilmida “Boburnoma” asari va uning turli tillarga tarjimalari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Vatanimiz tarixida yaratilgan asarlar sirasida “Boburnoma”dek xorijiy tillarga ko‘p sonli va mukammal tarjimalar asosida o‘rganilgan asar bo‘lmasa kerak. Mazkur asarning tarixiy, ilmiy, badiiy ahamiyati, tarjimalarda tarixiy va badiiy tasvirning qayta yaratilishi masalasi ingliz, fransuz, nemis, rus boburshunoslari tomonidan ko‘plab tadqiqotlarning yaratilishiga asos bo‘lgan. Bu borada Bobur va boburiylar tarixi, “Boburnoma”ning tarixiy, badiiy, etnografik, madaniy, geografik ma‘lumotlar manbasi sifatidagi o‘ziga xosligi alohida rol o‘ynaydi.

Dunyo miqyosida tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarda tarixiy asarlarning tarjimalarini qiyosiy o‘rganish alohida ahamiyatga ega. “Boburnoma” ko‘p asrlardan buyon turli ilmiy yo‘nalishlardagi Sharq va G‘arb tadqiqotchilarining e‘tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. “Boburnoma” XVI asrdan boshlab hozirgacha fors, golland, fransuz, ingliz, nemis, ispan, xitoy, arab, yapon, turk, rus, hind, urdu va 30 dan ortiq boshqa tillarga bir necha martalab tarjima qilingan, sharh-izohlar bilan nashr etilgan. Shu jihatdan ilmiy ishning dolzarbligi “Boburnoma”ning tarix va jahon adabiyotida tutgan o‘rnini o‘rganish zaruriyati bilan izohlanadi.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan “Boburnoma” leksikasi va uning yozilish uslubi, tarixiy, adabiy, lingvistik va manbashunoslik yo‘nalishida turli sohalarni qamrab olgan asar sifatida, turli rakurslarda tadqiq etilgan. “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan qadriyatlarimizni to‘liq aks ettiruvchi mazkur asar tarjimalarini o‘rganishga kirishib, uning nemis tilidagi adekvat tarjimalari va ekvivalentlik hodisasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning ko‘p asrlik mashaqqatli mehnatlari tufayli Bobur shaxsi butun barkamolligi bilan tarixiy va adabiy siymo sifatida baralla qad ko‘tardi. Zero, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo adabiyotshunosligi va tarjimashunosligida Zahiriddin Muhammad Boburning ijtimoiy faoliyati hamda ilmiy merosini o‘rganishda turli soha olimlari katta natijalarga erishdilar. Uning ko‘plab asarlari nashr etildi, tarjima qilindi, tadqiqotlar va ilmiy-ommabop asarlar yaratildi. “Bobur – yo‘lbars”, “Buyuk mo‘g‘ullar saltanati”, “Ajoyib kishilar hayotidan” kabi asarlar va “Hindistonlik hukmdorlar” turkumida 30 dan ortiq esse, roman va ilmiy-tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Ayniqsa, ingliz sharqshunoslari Bobur Mirzo hayoti hamda ijodini chuqur o‘rganib, buyuk sarkarda, shoh va shoir to‘g‘risida o‘nlab monografiyalar, adabiy risolalar, maxsus qomus hamda lug‘atlar yaratdilar. Natijada, jahon ilm-fanida “Boburshunoslik” deb atash mumkin bo‘lgan soha vujudga keldi.

O‘zbek tarjimashunosligida G‘.Salomov, M.Xolbekov, N.Otajonov, H.Boltaboyev, S.Hasanov, Z.Xolmanova, H.Qudratullayev, D.Muhammadiyeva, Z.Teshaboyeva, G‘.Sotimov, L.Xo‘jayeva, G‘.Xo‘jayev, A.Ibroximov, M.Sobirov, R.Karimov, Z.Sadikov kabi o‘zbek olimlari boburshunoslikning rivojlanishiga o‘zlarining ilmiy izlanishlari va yaratgan asarlari bilan katta hissa qo‘shdilar<sup>2</sup>.

Jumladan, D.Hoshimova “Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi<sup>3</sup>, Z.Teshaboyeva “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklarning kognitiv va leksikografik tadqiqi<sup>4</sup>,

---

<sup>2</sup> Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 166; Холбеков М. Узбекско-французские литературные связи / в аспекте перевода, критики и восприятия: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самарканд, 1991. – С. 23; Отажонов Н. «Бобурнома» жахон адабий жараёнида: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 220; Болтабоев Х. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент, 2004. – Б. 138; Ҳасанов С. Бобурнинг “Рисолайи аруз” асари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.143; Холманова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 40; Қудратуллаев Х. Бобур армони. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 383; Муҳаммадиева Д. “Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи”. Фил. фан. бўй. фалс. док (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 53; Эркин У. Ҳиндистонда Бобур давлати / инглиз тилидан Ф. Сотимов таржимаси. – Тошкент, 1997 – Б.123; Шарма П. Бобурийлар салтанати / Инглиз тилидан Ф.Сотимов таржимаси /. – Тошкент, 1998. – Б. 168; Ходжаева Л. Проблемы перевода: характер, стиль и интерпретация текста «Бобурнаме». Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Андижан, 1985. – С. 57; Ходжаев Г. Воссоздание художественно-стилистического своеобразия произведений узбекской литературы в переводе на немецкий язык. Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 54; Иброҳимов А. “Бобурнома”даги ҳиндча сўзлар тадқиқи. Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 83; Собиров М. “Бобурнома”нинг инглизча таржималарида муаллиф услуби ва бадииятини қайта тиклаш муаммолари (Лейден-Эркин, Бевериж ва Текстон таржималарининг қиёсий таҳлили асосида). Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 2002. – Б. 64; Р.Каримов “Бобурнома”даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2003. – Б. 76; Садиқов З. Юсуф Хос Ҳожиб «Қутадуғу билиг» асари немисча ва инглизча таржималарининг қиёсий – типологик таҳлили: Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 87.

<sup>3</sup> Хошимова Д. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржIMALARI тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 74.

<sup>4</sup> Тешабоева З. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик birlikлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. док. (PhD)... дисс.автореф. – Тошкент, 2017.– Б. 48.

M.Mo‘minova “Boburnoma” matni tarjimalarida antroponim hamda toponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari<sup>5</sup>ni o‘rganganlar. Mazkur ilmiy izlanishlarda G‘arb sharqshunoslarining boburshunoslikdagi xizmatlari, tadqiqotlarning bir-biriga ta’siri, “Boburnoma” tarjimasida mukammallik (adekvatlik)ka erishish masalasi ingliz tilidagi tarjimalar qiyosida tadqiq qilingan bo‘lsa, G‘.Xo‘jayev<sup>6</sup>ning ishida birinchi bor “Boburnoma”ning nemischa tarjimalariga murojat qilingan. Olim o‘z tadqiqotida “Boburnoma”ning A.Kayzer va Y.Klaprot tomonidan amalga oshirilgan avvalgi tarjimalari bo‘yicha tahlillar qilgan, lekin “Boburnoma” matnidagi milliylik masalalari, milliy udumlar, toponimlar, fors-tojik maqollari, V.Shtammler, K.Shoning kabi yirik turkologlarning tadqiqotlarini e’tibordan chetda qoldirgan. Tadqiqotchi A.Tursunov<sup>7</sup> esa “Boburnoma”ning V.Shtammler tomonidan nemis tiliga o‘g‘irilgan tarjimasida milliylikning qayta yaratishga doir ayrim o‘rinlariga to‘xtalgan.

Ta’kidlash joizki, “Boburnoma”ning turli tillarga tarjimalari lingvistik tadqiqi ko‘plab olimlar diqqatini tortgan. Lekin, o‘zbek tarjimashunoslik ilmida “Boburnoma”ning nemis tiliga qilingan tarjimalari, ayniqsa, H.Dalov tarjimasini alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan va monografik plan(asno)da maxsus tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot dolzarblik kasb etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyotini xorijda o‘rganilishi va tarjimashunoslik masalalari hamda chet til ta’limi muammolari” mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** “Boburnoma”ning H.Dalov nemischa tarjimasida milliy va uslubiy o‘ziga xoslikning ifodalanishi masalasini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“Boburnomani” tarjimadan tarjima qilish muammolarini o‘rganish orqali H.Dalovning nemis tiliga tarjimasida tahlil, tahsil va tadqiqot yaratish tajribasi, mahorati hamda boburshunoslikdagi xizmatlarini yoritish;

tarjimada sharqona etiket hamda asardagi boburiy ayollar siymosini yaratish masalalarini tahlil qilish;

H.Dalov tarjimonlik mahoratidagi tarixiylik hamda milliylikni yaratishdagi o‘ziga xosliklar, geografik nomlar va toponimlarning nemischa tarjimalaridagi ifodasini aniqlash;

frazeologik birliklar va maqollarning H.Dalov tarjimasidagi badiiy-stilistik xususiyatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** “Boburnoma”ning S.Azimjonovanning qisqartirilgan ruscha tarjimasini va shu manbadan H.Dalov tomonidan amalga oshirilgan nemischa tarjimalari hisoblanadi.

<sup>5</sup> Mўминова М. “Бобурнома” матни таржималарида антропоним ва топонимларнинг лингвокультуролагик хусусиятлари. Филол. Фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – Б. 78.

<sup>6</sup> Ходжаев Г. Воссоздание художественно-стилистического своеобразия произведений узбекской литературы в переводе на немецкий язык. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 42.

<sup>7</sup> Турсунов А. Немисзабон адабиётларда Шаркнинг буюк сиймолари талкини. Филол. Фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. . –Тошкент, 2019. – Б. 105.

**Tadqiqot predmetini** “Boburnoma”ning H.Dalov nemischa tarjimasida matnidagi milliylik, urf-odatlar, muallif uslubining qayta yaratilishi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, chogʻishtirish, umumlashtirish, leksik-semantik va uslubiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

“Boburnoma”ning H.Dalov tomonidan nemis tiliga qilingan tarjimasidagi muammolar va avvalgi nemischa tarjimalaridagi Boburning oʻziga xos bayon uslubi oʻzgartirilgani, ilmiy-adabiy asardan koʻra koʻproq umummaʼlumotlar beruvchi memuarga aylanib qolgani, qisqartirishlar natijasida notoʻgʻri fikr-mulohazalar, maʼno uzilishlari sodir boʻlgani, asliyatdagi muallif nutqi jozibasining saqlanmaganligi hamda tarjimadan tarjima qilishda Bobur uslubi yoʻqolib borgani aniqlangan;

H.Dalov xos soʻzlar, terminlar, iboralar, tarixiy va arxaik soʻzlarni nemis tiliga oʻgirishda transliteratsiya, izohlash, sharhlash, tavsiflash usullarini qoʻllash orqali asliyat mazmun-mohiyatini saqlashga, ayniqsa, maqollarni nemischa oʻgirishda adekvat tarjimadan foydalanganligi asoslangan;

H.Dalov tarjimasida turkiy xalqlargagina xos boʻlgan urf-odat, kiyim-kechak nomlari, tarixiy realiyalar, maqol va matallar oʻz taʼsir doirasini kengaytirib, boshqa xalq hayotidan oʻrin olishiga imkon yaratilgani dalillangan;

H.Dalov tarjimasida oʻxshatish va metaforalar tushunarli tarzda tarjima qilish orqali tarjimonning matn badiiyligi, obrazliligi hamda muallifning soʻz qoʻllash mahoratini, voqealar tasviridagi joziba va taʼsirchanlikni saqlab qolishning uddasidan chiqqanligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Boburnoma”ning nemischa tarjimalari va ilmiy-tadqiqot ishlarini, talqinlari va nashrlarini oʻzaro qiyosiy-chogʻishtirib oʻrganish natijasida H.Dalov tarjimasidagi yutuq va ayrim kamchiliklar aniqlanganligi, “Boburnoma”ning nemischa tarjimasini tahlil qilish orqali ularning tarjimonlik amaliyotida foydalanilishi va realiyalar, muqobilsiz leksika, tarixiy va arxaik soʻzlar, onomastik birliklar: antroponimlar, geografik nomlar, toponimlar, oykonimlarning milliy, madaniy, funksional hamda uslubiy xususiyatlari ochib berilgan.

“Boburnoma”ning H.Dalov tarjimasida matnini oʻrganilishiga oid xulosa va talqinlardan tarjimashunoslik, etnografiya, lingvomadaniyatshunoslik, onomastika leksikologiya, til tarixi, uslubiyat, kabi sohalarda yangi ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishda foydalanish mumkinligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Mavzu va rejaning toʻgʻri qoʻyilganligi, dissertatsiya yuzasidan mavjud ilmiy qarashlarning toʻliq oʻrganilganligi, respublika hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, metodologik mukammalligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tadqiq qilingan materiallar oʻzbek va nemis tillari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosa qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik puxtaligi, mavzu boʻyicha ilmiy asoslangan xulosalar

chiqarilganligi, taklif, tavsiya va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, “Boburnoma”day ulkan qomusiy asarning nemis tiliga o‘girilgan tarjima matni tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan hali yetarli darajada tadqiq etilmagan bo‘lib, bu borada ko‘p tilli izohli lug‘at yaratish, nemis tarjima va tajribalarini umumlashtirishda ushbu dissertatsiya nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** qo‘lga kiritilgan natijalardan o‘zbek adabiyoti tarixi, qiyosiy tipologiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti yuzasidan oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlari, magistr va doktorantlar uchun maxsus qo‘llanmalar yaratishda, davr talabiga ko‘ra muntazam kengayib borayotgan tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi** “Boburnoma”ning H.Dalov tarjimasida milliy, lingvistik, uslubiy o‘ziga xoslikning ifodalanishini qiyosiy tipologik tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

“Boburnoma”ning milliy va lisoniy-uslubiy xosligini nemischa tarjimada aks ettirish muammolari, “Boburnoma”ning H.Dalov tarjimasida milliylikni qayta yaratishdagi o‘ziga xosliklar, undagi antroponim va toponimlarning nemischa tarjimasida, asarning nemischa tarjimasida frazeologik birliklarning ifodalanilishiga doir xulosa va natijalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 – “O‘zbek tilining ta’lim korpusini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-iyundagi 04/1-1478 sonli ma’lumotnomasi) Natijada, loyiha tarixiy va arxaik so‘zlar, onomastik birliklar, antroponimlar, geografik nomlar, toponimlar, oykonimlarning milliy, madaniy, funksional hamda uslubiy xususiyatlari haqidagi yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan;

“Boburnoma”ning nemischa tarjimasida va uning muhim xususiyatlari, unda uchraydigan harbiy atamalar, ularning qo‘llanilishi, asardagi badiiy-uslubiy hamda milliy xoslikning aks ettirish masalalari taxliliga oid xulosalaridan Bobur nomli xalqaro jamoat fondida 2023-2024-yillarda bajarilgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga oid loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan. (Bobur nomli xalqaro jamoat fondining 2024-yil 28-oktabrdagi 28-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya xulosalari loyihalarning nazariy, amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy ma’lumotlar bilan boyishiga xizmat qilgan;

tadqiqotda aks etgan “Boburnoma”ning milliy va lisoniy-uslubiy xosligini nemischa tarjimada aks ettirish muammolarini (H.Dalov tarjimasida misolida) ifodalashdagi tahliliy fikr va nazariy xulosalaridan esa O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston kanali” DM tomonidan 2022-yil dekabr va 2023-yil yanvar va oktyabr oylarida efirga uzatilgan “Adabiy jarayon”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Bedorlik” nomli hamda 2024-yil sentabr oyida “O‘zbekiston tarixi telekanalida efirga uzatilgan “Tarixiy savol” ko‘rsatuvi dasturlar senariyalarini tayyorlashda foydalanilgan.(O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-noyabrdagi 04-36-1753-sonli hamda 2024-yil 18-sentabrdagi 06-28-768 sonli

ma'lumotnomalari). Natijada Boburnoma tarjimalari tarixini yoritish, g'arb tillariga qilingan tarjimalari xususiyatlarini o'rganilishiga oid foydali ma'lumotlar ushbu ko'rsatuvlarning mazmunini ilmiy va amaliy jihatdan boyitgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta (6 ta respublika hamda 3 ta xorijiy jurnallarda) maqola hamda ilmiy-amaliy anjumanlar, jumladan, 2 xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va nashr etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan, 7 tasi Respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda hamda 15 ta ilmiy-amaliy anjumanlar tezis, jumladan, 8 ta xalqaro va 7 ta Respublika ilmiy amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 143 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon qilingan. Respublika fan va texnologiyalar qo'mitasining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatilgan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishonchliligi bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Boburnoma”ning nemis tiliga tarjimalari tarixiga oid tadqiqotlarning nazariy asoslari** mavzusida bo'lib, ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “Boburnoma”ning nemis tiliga tarjimalari tadqiqi deb nomlanadi va unda yurtimiz va xorijlik tarjimashunos olimlarning “Boburnoma”ni nemis tiliga tarjimalari xususida fikrlari muqoyasa qilinib, munosabat bildirilgan va mazkur nazariy fikrlar misollar orqali izohlab berilgan.

Bobur Mirzoning ilmiy merosi “Boburnoma” nemis tiliga bevosita va bilvosita 5 marta qayta-qayta tarjima qilingan.

Nemis sharqshunoslari va tarjimashunoslarining tarjimachilik faoliyatida quyidagi holatni kuzatamiz va tadqiqot davomida yutuq va kamchiliklarni o'rganib boramiz: turkiy → nemischa tarjima, inglizcha tarjima → nemischa tarjima, fransuzcha tarjima → nemischa tarjima, ruscha tarjima → nemischa tarjima.

Badiiy asarni bir tildan ikkinchi bir tilga o'girish jarayoni haqida so'z yuritilganda taniqli tarjimashunos G'.Salomov quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini ta'kidlaydi:

1. Asliyat matnini tarjimon qanday qabul qilishi, ya'ni tushunishi;
2. Asarning g'oyasi, muallifning maqsadi va ana shu maqsadni o'ziga xos uslubini qay tariqa talqin qilishi;

3. So‘z san‘ati namunasini tarjima tilida qayta tiklashda muqobil vosita tanlay bilishi va to‘g‘ri yo‘l topa olishi<sup>8</sup>.

“Boburnoma”dagi Farg‘ona tasviri 1810-yilda germaniyalik sharqshunos, sayyoh va olim Y.Klaprot tomonidan nemis tiliga tarjima qilinib, “Osiyo adabiyoti, tarixi va tilshunosligi arxivi” nomli kitobda 1810-yilda Peterburgda nashr ettiriladi, lekin bu tarjima to‘liq va mukammal emas edi<sup>9</sup>. “Boburnoma”ning Y .Klaprot tarjimasi Boburning o‘z qo‘li bilan yozgan turkiy qo‘l yozmadan o‘g‘irilgan. Bu haqida muallif shunday deydi: “Bu turk-tatar tilida yozilgan ajoyib bir asarning nomi bo‘lib unda Hindistondagi boburiylar sulolasining asoschisi bo‘lgan Bobur o‘zining yurishlari va ko‘rgan-kechirganlarini tasvirleydi”.

Ma‘lumki, 1826-yilda ingliz sharqshunos olimlari J.Leyden va V.Erskinlar tomonidan “Boburnoma” ingliz tilida nashr etilgandan so‘ng nemis tarjimoni A.Kayzer shu inglizcha tarjima asosida “Boburnoma”ni nemis tiliga o‘girdi va 1828- yilda Leypsigda nashr ettirdi<sup>10</sup>.

“Boburnoma” 1980-yilda yana bir nemis tadqiqotchisi V.Shtammler tomonidan fransuz tilidan nemis tiliga tarjima qilindi. 1988-yilda esa YUNESKO tavsiyasi bilan ushbu tarjima qayta nashr qilindi<sup>11</sup>. V.Shtammler asardagi voqealar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun S.Azimjonovanning “Bobur Transaksoniyada”, afg‘on tadqiqotchisi A.Habibiyning “Bobur Afg‘onistonda”, hind tarixchisi M.Hasanning “Bobur Hindistonda” to‘g‘risidagi tahliliy maqolalarini kiritgan.

Ta‘kidlash joizki, “Boburnoma”ning V.Shtammler tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi avvalgi tarjimalardan bir qator ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Tarjimon asarni to‘la qamrab olish barobarida asliyatni nemis o‘quvchisiga adekvat tarzda yetkazib berishga harakat qilgan. Biroq, ko‘plab tarjimalarda uchraganigidek, “Boburnoma”ning mazkur tarjimasida ham mutarjim ayrim o‘rinlarda asliyatning xiralashishiga yo‘l qo‘ygan.

Germaniyada “Boburnoma”ning yana bir tarjimasi H.Dalov tomonidan S.Azimjonovanning qisqartirilgan ruscha tarjimasidan 2016-yilda nemis tiliga o‘girildi. Tadqiqotimiz mavzu mohiyatidan kelib chiqib biz mazkur tarjimoni tahlilga tortmadik. Biz H.Dalovni ikkinchi bor 2022-yilda Boburnomaning bevosita Haydarobod nusxasidan amalga oshirilgan va avvalgi tarjimasiga nisbatan to‘ldirilgan holda nashr etilgan tarjimoni tahlilga oldik. Mazkur tarjima asar o‘zbek tilida professor H.Sulaymon tayyorlagan 1970-yildagi nashri va S.Azimjonovanning qisqartirilgan ruscha tarjimasidan ham foydalanilganini kuzatdik. H.Dalov tarjimada “Boburnoma”ning Haydarobod nusxasidan samarali foydalanganligi va ushbu tarjimoni mukammal chiqishiga olib kelganligini kitob so‘z boshisida qayd etadi (In meiner Texterstellung und Übersetzung habe ich mich akribisch an die Grundlage des weltberühmten Hayderabadtexts gehalten, da die Urschrift vom “Baburname” verloren gegangen ist. Um meine Übersetzung mit dem

<sup>8</sup> Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 74.

<sup>9</sup> Klaproth J. Archiv für asiatische Literatur, Geschichte und Sprachkunde, I Band. – St, Petersburg, 1810. – S.101–102.

<sup>10</sup> Denkwürdichkeiten des Sehir-Eddin Muhammed Baber, Keisers von Hindustan, von ihm selbst in Dschagatei Türkischen verfasst und nach der englischen Übersetzung des Dr. Leyden und W. Erskine deutsch bearbeitet von A. Keiser. – Leipzig, 1828. – S.6.

<sup>11</sup> Stammer W. Die Erinnerungen des ersten Grossmoguls von Indien. Das Babur-nama. – Zürich: Manesse Verlag, 1988. – S. 36.

Hayderabadtext, der unter Historikern als beste Übersetzung des Originalwerkes eingeschätzt wird, vergleichbar zu machen, habe ich darin dessen Nummerierung angegeben<sup>12</sup>).

“Boburnoma”ni nemis tiliga o‘girgan tadqiqotchilarning tarjima variantlarini chog‘ishtirganda, tarjimonlar asliyat mazmunini saqlashda so‘zma-so‘z, transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy ifoda, izoh va sharhlar kabi usullardan foydalanganligini guvohi bo‘lindi.

## 1-jadval

### “Boburnoma”ning nemischa tarjimalari

№	Tarjimon	Tarjima qilingan vaqti	Nomlanishi	Tarjima usuli
1	Y. fon Klaprot	1810	Babur-Nameh	Bevosita (asliyatdan)
2	A. Kayzer	1828	“Babur- Nama”	Bilvosita (ingliz tilidan)
3	V. Stammler	1988	Die Erinnerungen des ersten Grossmoguls von Indien Das Babur-nama	Bilvosita(fransuz tilidan)
4	Helmut Dalov	2016	Babur-name	Bilvosita (rus tilidan)
5	Helmut Dalov	2022	Babur-name	Bevosita (asliyatdan)

Mazkur bobning ikkinchi faslida H.Dalov tomonidan “Boburnoma”ning nemis tiliga bilvosita tarjimasi, ushbu jarayonning o‘ziga xos afzallik jihatlari, yutuqlari va tarjimon mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Ma’lumki, lisoniy tarjima xilma-xil turlarga bo‘linadiki, badiiy adabiyot tarjimasi ular orasida alohida o‘rin tutadi. O‘girilayotgan matnning xususiyati badiiy tarjimada o‘ziga xos o‘rinni belgilaydi. Tarjimaning maqsadi – bir til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ikkinchi til materiali asosida qayta yaratishdan iboratdir. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nusxani to‘la-to‘kis idrok etishi, so‘ngra uni o‘z tilida bekamu-ko‘st qayta ifodalashi joiz. Muallif yaratgan badiiy-estetik voqelikni to‘laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo‘lganligi holda, badiiy tarkib asosida lisoniy vositalarning mazmuniy va uslubiy-estetik jihatlarni to‘gri anglashi, shu bilan birga muallif nazarda tutgan bosh g‘oyani, uning niyat va maqsadlarini, ochiq oydin ko‘zga tashlanib turgan voqea-hodisalar tasviridan tashqari yana matn ortida turgan voqelikni, bir so‘z bilan aytganda nafaqat lisoniy, balki g‘ayrilisoniy omillarni ham to‘la-to‘kis tasavvur etishi zarur.

Tarjimon H. Dalov amalga oshirgan yangi nemischa tarjimada ko‘plab milliy va tarixiy ahamiyat kasb etadigan lisoniy birliklar Bobur va boburiylar davriga oid lavhalarni qayta yaratishda avvalgi nashrlarga nisbatan asliyat mazmunini to‘la saqlaganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, “Boburnoma” da oliy hukmdor, ya’ni podshoh, shoh, amir va xonlar huzurida bevosita xizmat qiluvchi mansabdor shaxslar va ularning unvonlarini ifodalab keluvchi ko‘plab leksemalar mavjud. Mazkur leksemalar H.Dalov tarjimasida izohlar keltirish orqali xuddi asliyatdagidek o‘z aksini topgan, deyish mumkin. Masalan: quyida biz “shig‘ovul” leksik birligining tarjimalardagi tahlilini, keltirilgan jadval orqali ko‘rib chiqamiz<sup>13</sup>.

<sup>12</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S.8.

<sup>13</sup> Ushbu jadval muallif tomonidan quyidagi: Захириддин Мухаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарк НМАК, 2002. – Б.237; Азимджанова С. Захир ад-Дин Бабур. Бабур-наме. – Ташкент, 1982. – С. 262; Dalov H.

<b>Asliyatda</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Boqi shig'ovul bir necha yigit bila yog'iyning keyinicha surib, ko'ch va sabihasiq'a yetib, afg'onlarning yasirini kelturdilar.</i></li> </ul>
<b>Rus tilida</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Баки шигаул с несколькими йигитами погнался за неприятелем и настиг домочадцев и родичей Шейх Баязида; нескольких афганцев они взяли в плен и привели.</li> </ul>
<b>Nemis tilida</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Baqi Schighaul und einige Krieger verfolgten den Feind weiter.Sie holen die Hausangehörigen und Verwandten Scheykh Bayazids ein, nahmen einige Afghanen und brachten sie zu uns.</i></li> </ul>
<b>Ma'nosi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Boqi shig'ovul va ba'zi jangchilar dushmanni ta'qib qilishda davom etdilar. Shayx Boyazidning oila a'zolari va qarindoshlarini quvib etib, bir qancha afg'onlarni asir qilib olib kelishdi.</li> </ul>

### 1-rasm. Shig'ovul so'zining tarjimasida

Bu yerda Boqi shig'ovulni nemis tiliga transkripsiya yo'li bilan o'girilgan. Asarda shig'ovul so'ziga alohida ta'rif berilmagan. O'quvchi asliyatdan shig'ovul saroyning yuqori lavozimidagi amaldori ekanligini biladi, biroq uning qanday ish bilan shug'ullanishini unchalik anglay olmaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zga shunday ta'rif beriladi: Tarjima. "Saroy mansabi: Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, ularni xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan mansabdor shaxs"<sup>14</sup>.

Rus tilida esa shig'ovul so'ziga izoh berilgan va u quyidagicha ifodalangan: Шигаул (шагаул) – главный писец; он мог также выполнять роль курьера<sup>15</sup>.

Nemis tili va rus tillarida *shig'ovul* so'ziga alohida izoh berib ketilgan va bundan o'quvchilar o'sha davr mansabdor shaxslari va ularning vazifalari haqida oz bo'lsada ma'lumotga ega bo'ladilar. Aytishimiz mumkinki, bunday izohlar bilan berilgan tarjima asarni tushunarli bo'lishida alohida ahamiyatga ega. Nemis tilida **Schighaul bedeutet Chefschreiber** (der Oberschreiber), der auch als Kurier fungierte und als Höfling des Herrschers Gesandte fremder Staaten bei einer Audiens begleitete<sup>16</sup>.

Ma'nosi: Shig'ovul – bosh kotib degan ma'noni bildiradi, u ham chopar bo'lib ishlagan va hukmdorning saroy a'zosi sifatida xorijiy davlatlardan kelgan elchilarni xon qabuliga olib kirish bilan shug'ullangan.

H.Dalovning tarjimonlik mahorati tilning tasviriy vositalari tarjimasida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, *yoqa* so'zli metaforaga to'xtalib o'tmoqchimiz:

**Asliyatda.** *Муҳаммад Замон мирзо рухсат тилаб, Аграда қолди. Ушул кеча уч-тўрт курух йўл юруб, улуг бир кўл ёқасида тушуб, ўй қувладук. Намозни эртарак ўтаб, отландук*<sup>17</sup>.

Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 540 asarlaridagi misollar tahlili asosida tayyorlangan.

<sup>14</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 6-jild. – Toshkent, 2023. – B. 652.

<sup>15</sup> Азимджанова С.А. Захир ад-Дин Бабур. БАБУР-НАМЕ. Книга II. – Ташкент, 1982. – С. 296.

<sup>16</sup> Dalov H., Babur S.M. Babur-name. Deutsche Übersetzung von Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 395.

<sup>17</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 237.

**Nemis tilida.** *Muhammed Zaman Mirza bat um die Genehmigung, in Agra bleiben zu dürfen, und blieb dort. An jenem Abend legten wir drei bis vier Körühen zurück und hielten am Ufer eines Sees an, um zu schlafen. Nach dem Morgengebet des Folgenden Tages ritten wir weiter*<sup>18</sup>.

**Ma'nosi.** *Muhammad Zamon mirzo Agrada qolish uchun ruhsat so'radi va u erda qoldi. O'sha kuni kechasi uch-to'rt ko'rux yo'l yurib, bir ko'l yoqasida (qirg'og'ida) to'xtab uxladik. Bomdod namozidan so'ng otlandik.*

Bu yerda ko'l yoqasida nemis tiliga ko'l qirg'og'ida shaklida o'girilgan va metafora yo'qolgan. Lekin bu oddiy lingvistik metafora bo'lgani uchun mazmunga putur yetmagan va ma'no saqlangan. H. Dalov tasviriy vositalarni tarjima qilishda ham ko'proq so'zma-so'z tarjima, izohli tarjima va analogik tarjima usullaridan foydalangan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, H. Dalov tarjimasida tarixiy so'zlar, arxaizmlar, o'xshatish va metaforalar kitobxonga tushunarli tarzda yetkazilgan va tarjimon matnning badiiyligini hamda obrazlilikini, muallifning so'z qo'llash mahoratini saqlab qolishga erishgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boburnoma”dagi milliy o'ziga xoslikni qayta yaratish masalasi** deb nomlangan. Uning birinchi fasli tarjimada milliylikni qayta yaratishning o'ziga xosliklari masalalariga bag'ishlangan.

Badiiy matnlardagi milliylikka xos bo'lgan so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda tarjimonlar yuqorida ta'kidlanganligidek, ayrim o'rinlarda xos so'zlarni tarjima qilinsa, boshqa o'rinlarda transliteratsiya yo'li bilan berib, havola qoldiradi. Demak, milliy xos so'zlar tarjimasida nafaqat amaliy xarakterga ega bo'lgan masala, balki nazariyaning ham “og'riqli” muammosi hisoblanadi. Shu o'rinda, badiiy asarlar tarjimasida tarjimonlar sa'y-harakatlari bilan asliyatga yaqinlashishga erishiladi. Tarjimada milliylikni berish masalasida ekvivalentlik va adekvatlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etuvchi masalalardan hisoblanadi. Albatta, ekvivalentlik va adekvatlik masalasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va bu borada turlicha qarashlar mavjud. Masalan, V.N. Komissarovga ko'ra, ekvivalent – bir nutq birligi bajaradigan funksiyani bajara oladigan boshqa nutq birligidir. “Ekvivalentlik hozirgi tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, tarjimaning muhim xususiyatlarini ochib beradi”<sup>19</sup>.

Tarjimada ekvivalentlik masalasida S. Vlixov asliyat tili va tarjima tili o'rtasidagi til birliklarining ma'no jihatdan o'xshash bo'lishligini ta'kidlaydi<sup>20</sup>. Jumladan, R. Levitskiy “ekvivalentlik” va “adekvatlik” atamalarini bir-biri o'rniga ishlatish mumkin deb hisoblaydi<sup>21</sup>. Aslini olganda, badiiy asarning mazmun-mohiyatini, milliylikni, muallif uslubini tarjima tilida saqlagan holda tarjima tilida qayta yaratishni mukammal tarjima deyish mumkin.

Yuqoridagi ta'rif va olimlar fikrlaridan kelib chiqib biz mazkur bobda milliylik va milliy xususiyatlarni nemis tilida qay tarzda ifoda etilganligi va tarjimada qay darajada aks etganligini yoritish va tarjimon mahoratini ochib berishga harakat qildik.

<sup>18</sup> Dalov H., Babur S.M. Babur-name. Deutsche Übersetzung von Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 395.

<sup>19</sup> Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М, 1980. – С. 134.

<sup>20</sup> Влахов С.И., Флорин С.П. Непереводимые в переводе, издание 3-е. – Москва, 2006. – С.237 .

<sup>21</sup> Левицкая Т.Р. Проблемы перевода. – М: Международные отношения, 1976. – С. 3.

Jumladan, asardagi *Sulton Husaynning shakl va shamoyili haqida gapirib, “Kiyik, ko‘z luk, sherandom bo‘y luk kishi edi. Belidin kuyi inchka edi. Bovujudkim, ulug‘ yosh yashab, ok, sokrllik bo‘lub edi, xushrang, qizil-yashil abrishimni kiyar edi. Qora ko‘zi bo‘rk kiyar edi yo qalpok,. Ahyonan iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi namoyon’ chirmab, qarqara o‘tag‘asi sanchib, namozg‘a borur edi” deb yozadi*<sup>22</sup>.

H.Dalov buni tarjimada quyidagicha amalga oshiradi: *“Sultan Huseyn Mirza war ein Mann mit Schlitzaugen, stämmig, aber schmal gebaut. Auch als er schon ein reifes Alter erreicht hatte und sein Bart ergraut war, kleidete er sich noch in Gewänder aus hellroter oder grüner Seide und trug eine schwarze Lammfellmütze oder einen Kolpak (Pelzmütze). Manchmal begab er sich an einem Festtag zum Gebet und trug einen kleinen, flachen, nachlässig gewickelten und dreifach gefalteten Turban, der mit einer Reiher-feder geschmückt war”*<sup>23</sup>.

Ma‘nosi: *Sulton Husayn mirzo qiyiq ko‘zli, belidan pasti ingichka kishi edi. Ulug‘ yoshga yetib, soqoli oqargan bo‘lsada, xushrang, qizil-yashil ipak matolardan kiyim kiyardi. Qora qo‘zi terisidan qilingan bo‘rk yo qalpoq kiyardi. Ba‘zan iydlarda kichik uch o‘rama sallani yap-yassi chirmab, qarqara patini sanchib, namozga borardi.*

Tarjimon “Qora qo‘zi bo‘rk kiyar edi yo qalpoq” so‘z birikmasini “eine schwarze Lammfellmütze oder einen Kolpak (Pelzmütze)” shaklida tarjima qilgan va o‘quvchini tushunishi uchun izoh ham bergan.

O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, H.Dalov “Boburnoma”dagi milliylik va milliy xususiyatlarni asliyatga yaqin ifodalash uchun, tarixiy joy nomlari, sharqona kiyim nomlari, realiya va xos so‘zlar, o‘lchov birliklari va asbob-uskuna nomlarini tarjima qilishda; transliteratsiya (to‘la va qisman) bevosita so‘zni fonetik moslashtirish yoki so‘z negiziga o‘z tilining unsurlarini qo‘shish; predmetni ifodalash uchun tilda real mavjud bo‘lgan unsurlardan foydalangan holda yoki morfologik birlashtirish yo‘li bilan yangi so‘z yoki so‘z birikmasi hosil qilish; boshqa tildagi realiyalarni ifoda etuvchi so‘zlarni vazifasi va funksiyasi jihatidan o‘sha realiyaga yaqin turgan (garchi aynan bo‘lmasada) so‘zlar yordamida tarjima qilish kabi usullarni qo‘llagan.

Mazkur bobning 2-faslida “Boburnoma”dagi sharqona etiket va boburiy ayollar siymosi tasvirining nemis tilida qayta yaratish masalasi tahlil etilgan. Ma‘lumki, jamiyat orasida insonni hurmatga sazovor qiladigan umumiy odob-axloq mezonlari borki, bularsiz sog‘lom jamiyatni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ovqatlanish, salomlashish, ruxsat so‘rash, majlis, so‘zlashish, hazil-mutoyiba, kasal ko‘rish, ta’ziya bildirish, aksa urish va esnash, mehmondorchilik hamda qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari kabi ijtimoiy odob-axloq qoidalarini har bir musulmon bilishi va ularga rioya etishi kerakligi azaldan farzand tarbiyasi hamda insonlarning ijtimoiylashish jarayonlarida yetakchi rol o‘ynagan. Ma‘lumki, har bir millatning muayyan urf-odatlarini, e’tiqodlarini asosida shakllangan o‘ziga xos nutqiy odatlari mavjud bo‘lib, bu odatlar ana shu xalqlarning tillarida yaqqol namoyon bo‘lib turadi. O‘z o‘rnida shuni ham qayd etish kerakki, “Boburnoma”da o‘sha davrga xos bo‘lgan salomlashish va o‘zini tuta bilish qoidalarini yuksak did bilan bayon qilingan: “*Уйдин*

<sup>22</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002.– Б. 156.

<sup>23</sup> Dalov.H Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 301.

киргач, уч юкундум. Хон хам таъзим қилиб қўптилар. Курушуб, ёниб юкунгандин сўнг ёнларига тилаб, қалин шафқат ва меҳрибонликлар кўрсаттилар<sup>24</sup>”.

Yuqoridagi vaziyat tarjimada quyidagicha ifodalangan: *Als ich das Zelt betrat, kniete ich sogleich dreimal vor ihm nieder. Der Khan erhob sich und verbeugte sich auch. Ich hatte ihn begrüßt und trat mit gebeugten Knien wieder zurück. Er bot mir den Platz an seiner Seite an und brachte mir ein hohes Maß an Wohlwollen und Huld entgegen*<sup>25</sup>. Tarjimada asliyat mazmuni to‘la saqlanganligini ko‘rish mumkin.

“Boburnoma”da ayollar obrazi alohida mahorat bilan tasvirlangan. Shuning uchun tadqiqotning xususiyatidan kelib chiqib, ishda “Boburnoma”da ayollar tasvirini nemis tilida qayta berilishiga e‘tibor qaratib, ayrim tahlillar keltirilgan. “Boburnoma”da nafaqat ijobiy fazilatlarga xos ayollar tasviri berilgan, balki salbiy xarakterdagi ayollarni ham yorqin misollarda ifodalangan. Masalan, Sulton Husayn mirzoning xotinlaridan biri Bekasulton begim haqidagi quyidagi tarifga to‘xtalsak:

**Asliyatda:** *“Avval olgan xotini Bekasulton begim edi. Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Badiuzzamon mirzo undan tug‘ilgan. Xulqi juda egri edi. Sulton Husayn mirzoni ko‘p ranjitardi. Xulqi yomonligidan mirzo bezor bo‘ldi, oxiri qo‘ydi va xalos bo‘ldi*<sup>26</sup>.

**Tarjimada:** *“Seine erste Frau war Bike Sultan Bikim, eine Tochter Sultan Sandjars von Merv. Sie gebar ihm Badi‘az-Zaman Mirza. Sie hatte einen streitbaren Charakter. Ihm war ihre Widerspenstigkeit zuwider. Er befreite sich von ihr, indem er sie verliebte. Was hätte er auch anderes machen können? Das Recht stand auf seiner Seite*<sup>27</sup>.

**Mazmuni:** *“Birinchi xotini Sanjar Sulton Marviyning qizi, Beka Sultonbegim edi. Unga Badiuzzamon Mirzoni tug‘ib berdi. Uning o‘ziga xos fe‘l-atvori bor edi. Uning qaysarligi haddan ortdi. Mirzo uni tark etish orqali undan qutildi. Boshqa nima ham qila olardi? Haqiqat u tomonda edi”*.

Ta‘kidlash joizki, “Boburnoma”ning H.Dalov talqinidagi tarjimasi mukammal amalga oshirilgan. Tarjimon asarni to‘la qamrab olish barobarida asliyatni olmon o‘quvchisiga adekvat tarzda yetkazib berishga harakat qilgan. Biroq, mutarjim tarjima jarayonida ayrim o‘rinlarda asliyatning xiralashishiga yo‘l qo‘ygan. Masalan, tarjimon “Yomon fe‘lli, xulqi egri xotin” borasida bir oz yanglish tarjima qilganligini aytib o‘tish joiz. “Miyyasiga qurt tushgan va urushqoq ayol” o‘rniga “Doim janjal qiladigan, yomon xulq-atvorli xotin” deb berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Haqiqatan ham, ota-bobolarimiz “Yomon xotin eriga do‘zax qilar“, deb bejizga aytishmagan. Tarjimon sharq ayoli obrazini yaratishda so‘zlarning muqobil variantidan foydalanishga harakat qilganlar.

Mazkur bobning keyingi fasli **““Boburnoma”dagi milliy antroponim va toponimlarning nemischa tarjimadagi ifodasi”** deb nomlanadi. “Boburnoma”ning muhim jihatlaridan biri, undagi antroponim va toponimlarning statistik tahlilidir. Olimlarimizdan H.Hasanovning qayd etishicha, asarda bir

<sup>24</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002.– Б. 51.

<sup>25</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 60.

<sup>26</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 131.

<sup>27</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 312.

mingdan ziyod joy nomlari berilgan<sup>28</sup>. R.Rasulov “Boburnoma”da mingdan ortiq geografik nomlar va 1800 dan ko‘proq kishi ismlari uchraydi<sup>29</sup> deb yozadi. T.Nafasov ham aniq raqamlarni keltiradi. Ya’ni, asarda 1406 ta kishi ismi, 1100 dan ortiq joy nomi qayd etilgan<sup>30</sup>, D.Hoshimova<sup>31</sup> esa 1560 dan ziyod antroponim va toponimlar berilganligini, M.Mo‘minova<sup>32</sup> esa 1614 ta kishi ismlari va 1253 ta joy nomlari mavjudligini ko‘rsatib berganlar. Bizning taxlilimizga ko‘ra asardagi turli millatlarga mansub kishilarning ismlari 1600 ta va 1200 dan ziyod toponimlar mavjudligi aniqlandi. Ko‘rinib turibdiki, “Boburnoma”da qo‘llanilgan geografik joy nomlari va kishi ismlarining soni xususida mutaxassislarning fikri bir-biridan farq qiladi. Mazkur raqamlarning turlicha ko‘rsatilishining sababi mualliflarning tadqiqot ishlarida izohlab berilmagan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, antroponim va toponimlarga boy bo‘lgan asarni tarjima qilish oson emas. Buning uchun tarjimon nafaqat ona tili, balki asliyat tilini ham mukammal bilishi kerak. Ma’lumki, tegishli ismlar, familiyalar va taxalluslarni tarjima qilish murakkab hamda hal etilmagan masalalardan biridir. Nemis tilidagi atoqli otlar, geografik nomlar va tashkilot nomlarini o‘zbek tiliga, asosan, transkripsiya yoki transliteratsiya vositasida tarjima qilinadi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida H.Dalov asardagi antroponim va toponimlarni tarjimasini berishda deyarli transliteratsiya usulidan foydalanganligini aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Asardagi adabiy-lisoniy va uslubiy o‘ziga xoslikni tarjimada qayta yaratish”** deb nomlanib, mazkur bob uch faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi faslida “Boburnoma”ning nemischa tarjimasida frazeologik birliklarning ifodalanishi tahlil qilingan. Frazeologizmlar har bir tilning leksik boyligi, obrazli ifodalar asosi, ta’sirchanlikni oshiruvchi eng oddiy, ammo muhim vositalardan biridir. Frazeologizmlar millatning urf-odatlarini, an’analarini o‘zida aks ettiradi.

Frazeologizmlar tarkibida nechta so‘z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma’no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma’noni ifodalaydi<sup>33</sup>. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta’sirchan vosita sifatida ko‘p qo‘llaniladi. Jumladan, G‘.Salomovning fikricha, frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko‘chma ma’no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi, komponentlarining o‘zaro birikuvi va gapda ham shu tartibini saqlab qolishi bilan izohlanadi<sup>34</sup>.

Har bir xalqning o‘ziga xosligi miliy-madaniy belgilarida va hayotning boshqa jabhalarida ham saqlanib keladi. Fikrimizcha, “Boburnoma” asarida qo‘llangan frazeologik birliklar, maqollar, matallarning barchasi milliy va madaniy xususiyatga

<sup>28</sup> Хасанов Х. Бобур сайёҳ ва табиатшунос. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 18.

<sup>29</sup> Расулов Р. Бобур – ўзбек тилининг софлиги учун курашувчи. Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. – Андижон, 1993. – Б. 44.

<sup>30</sup> Нафасов Т. Бобур – номшунос / Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётинингайрим масалалари. – Андижон, 1993. – Б. 39.

<sup>31</sup> Хошимова Д. Бобурнома матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 73.

<sup>32</sup> Мўминова М. “Бобурнома” матни таржималарида антропоним ва топонимларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – Б. 18.

<sup>33</sup> Тешабоева З. “Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик birlikлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан док. ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 131-133.

<sup>34</sup> Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент, 1983. – Б. 118.

egadir. Ularning orasida shunday frazeologik birliklar borki, ular aynan qaysi millatga va qanday din egalariga mansub ekanligini ajratib olish unchalik qiyin emas. Masalan, Bobur mirzo otasi Umarshayx mirzoning vafoti haqida shunday yozadi: “*Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to‘rtida Umarshayx Mirzo jardi kabutar va kabutarxona birla uchub, shunqor bo‘ldi*”<sup>35</sup>.

H.Dalov tarjimasida: *In diesem Jahr, am fünften Tag der ersten Dekade des Monats Ramazan, einem Dienstag (09. 06. 1494), Wie ist mein Vater zusammen mit seinen Tauben und dem Taubenschlag in die Schlucht gestürzt und gestorben. Er hat neununddreißig Jahre gelebt*<sup>36</sup>.

**Ma’nosi:** “*Ushbu yili seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida (1494 yil 8 iyun), otam tepadan o‘zining kabutar va kabutar xonasi bilan jarga qulab tushdi va vafot etdi. U 39 yil yashadi*”.

Asarni nemis tiliga tarjima qilishda H.Dalov aslyatga o‘zgacha yondashgan. *Shunqor bo‘lmoq* frazeologik birligini muqobil variantini ishlatgan. Tarjimada mazmun o‘zgarmagan balki o‘ziga xos shaklda ifodalangan. Tarjimon *shunqor bo‘ldi* birligini transformatsion uslubi orqali *uchub – ist in die Schlucht gestürzt – jarga qulab tushdi, shunqor bo‘ldi – ist gestorben – vafot etdi* tarzida muqobil tarjimaga erishgan.

H.Dalov tarjimasi o‘rganilganda, quyidagi holatga duch kelindi: tadqiqotchi tarjimaning o‘ziga xos tomoni, arxaik so‘zlarning mazmuniga to‘la muvofiqlashtirish uchun izoh va sharhlardan keng foydalangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining yaqinlari farzandlari, xotinlari, kanizaklari va amirlarining har biriga berayotgan ta’rifidan ularning ruhiy olami tasvirini ham aniq aks ettirilayotganligini ko‘rish mumkin. Olmon tarjimoni bu borada qanday yo‘l tutganligini misollarda ko‘rib chiqaylik. Masalan, Bobur Mirzo onasi Qutlug‘nigor xonimning o‘limini quyidagicha izohlaydi:

**Aslyatda:** *Muharram oyida mening onam Qutlug Nigorxonimga hasba marazi oriz bo‘ldi, fasod qildilar, noqis voqi’ bo‘ldi. Bir xurosonliq tabib bor edi, Sayyid tabib derlar edi. Xuroson dasturi bila hinduvona berdi, chun ajal yetib ekandur, olti kundan so‘ng shanba kuni Tengri rahmatig‘a bordi*<sup>37</sup>.

**Nemischada:** *Im Monat Muharram (04. 06. – 04. 07.) wurde meine Mutter Qutlug Nigar Khanim von Hasbe (Masern) befallen. Bei ihr wurde ein Aderlass vorgenommen, dabei entdeckte man, dass sie an Blutarmut litt. Ein Arzt namens Seyyid Tabib, der aus Khorosan stammte, behandelte sie auf khorosanische Art. Er gab ihre Wassermelonen zu essen. Als ihre Stunde gekommen war, ging sie sechs Tage später, an einem Samstag, in die Barmherzigkeit Gottes ein*<sup>38</sup>.

**Ma’nosi:** *Muharram oyida onam Qutlug‘nigor xonim qizamiq kasaliga chalindi. Undan qon olib, kamqonlikdan aziyat chekayotganligini aniqlashdi. Bir Xurosonlik Sayyid Tabib ismli tabib, Xuroson usuli bilan uni davoladi. U onamga achchiq tarvuz berdi. Vaqti soati kelgan ekan, olti kundan keyin, Shanba kuni Ollox raxmatiga bordi*”.

<sup>35</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 37.

<sup>36</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 42.

<sup>37</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 124.

<sup>38</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 290.

Tarjima o'quvchiga tushunarli tilda aniq berilgan. Onasining kassalligi tufayli topgan o'limiga berilgan ta'rifi, ya'ni "Tangri rahmatiga bordi" leksik birligi nemis tilida o'ziga xos usulda "*in die Barmherzigkeit Gottes eingehen*" shaklida ifodalangan.

Asardagi "*shunqor bo'lmoq*", "*shahid bo'lmoq*", "*rihlat qilmoq*" kabi ko'plab arxaizmlar Bobur yashagan davrni his qilish va kishilarning so'zlash uslubini anglashda yordam beradi.

Ushbu bobning "**Boburnoma**" **dagi maqollar va ularning H.Dalov tarjimasidagi talqini**" deb nomlangan faslida asardagi xalq maqollarining nemis tiliga tarjimalari tadqiqotga tortilgan.

Maqollar tarjimasini tarjimashunoslik ilmidagi eng murakkab vazifalar qatorida sanab o'tiladi. Negaki, bir til qaymog'i hisoblanmish maqollarni o'zga tilga o'girish uchun, birinchi navbatda, tarjima qilinishi joiz bo'lgan maqolning ichki mag'zini to'liq tushunish, uning kelib chiqish tarixiga nazar solish, asar syujetiga bog'liqligi, uning qo'llanilgan matn qismidagi funksiyasini aniqlash hamda voqea rakursidagi anglatgan o'z yoki ko'chma ma'nosini tahlil qilish kerak hisoblanadi. Shundan keyingina o'zga tildan ushbu maqolga mos keluvchi ekvivalent topish, agar bunday ekvivalent mavjud bo'lmasa, boshqa maqollar bilan solishtirish va eng yaqin ma'nolisini qo'yish yoki umuman iloji bo'lmaganda qo'shimcha izoh orqali tushuntirib o'tish joiz bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, maqollar tarjimasini kitobxonlar uchun yetuk tarjima namunasini yaratishga bel bog'lagan mutarjimdan katta tajriba, qiyosiy bilim hamda ulkan sabrni talab qilishi shubhasizdir.

Taniqli tarjima nazariyotchisi A.V.Fyodorovning risolasi<sup>39</sup>da maqol va boshqa frazeologik birliklarni rus tiliga tarjima qilishning quyidagi usullari ko'rsatiladi:

– maqol va boshqa frazeologik birliklarni tarkibidagi so'zlar moddiy ma'nosini aynan saqlagan holda o'girish;

– asl nusxadagi maqol va boshqa frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlarning moddiy mazmuni yoki shaklini bir qadar o'zgartirib tarjima qilish;

– asl nusxadagi maqol va boshqa frazeologik birliklarni asar tarjima qiliniyotgan tilda haqiqatda mavjud bo'lgan muqobil bilan almashtirish.

A.V.Fyodorov tavsiya qilgan bunday usullar maqol va boshqa frazeologik birliklar tarjimasining umumiy qoidalariga muvofiq keladi. Ularni xuddi shu tartibda turkiy tillardan nemis va ingliz tillariga o'girishga nisbatan aynan qo'llab bo'lmaydi. Bundan tashqari, ushbu masalaning murakkabligi shundaki, ularni nafaqat bir tildan ikkinchisiga, balki bir muallif asarining ikkinchi bir tilga tarjimasida ham muayyan muammolar keltirib chiqaradi.

G'.Salomovning ta'kidlashicha, "Ayrim frazeologik birikmalarning tilda aniq ekvivalenti yoki muqobil variantlari yo'qligi ularni umuman tarjima qilib bo'lmasligini ko'rsatmaydi. Aksincha, xuddi shu hol ularni aniq tarjima qilishga ehtiyoj tug'diruvchi sabablardan biridir. Maqol, matal yoki idiomalarning shakli va obyektlarini aynan saqlagan holda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish uni uchinchi, to'rtinchi va boshqa tillarga ham aynan shunday tarjima qilish uchun asos bermaydi<sup>40</sup>. Ushbu asarda keltirilgan tarjima namunalariga nazar solar ekanmiz, shubhasiz, asarda qo'llanilgan ba'zi maqol va matallarning tarjimasiga alohida

<sup>39</sup> Федоров А.В. Введение в теорию перевода. (Лингвистические проблемы). – Москва, 1958. – С. 282.

<sup>40</sup> Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 280.

e'tibor qaratish joiz hisoblanadi. Negaki, shu orqali tarjimonning tarjima qobiliyatiga baho berish hamda maqollar tarjimasida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni ko'rib chiqish va, albatta, ular uchun munosib yechimlar topish imkoniga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Keltirilgan misollarda tarjimonning qay tarzda tarjimini amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi maqolning tarjimasiga e'tibor qaratamiz:

*"Teng bo'lmaguncha, to'sh bo'lmas"*<sup>41</sup>.

*"Wie die Berge sind, so sind auch die Bewohner"*<sup>42</sup>.

Bu yerda o'ziga xos yondashuv ajoyib tarjima hosil bo'lgan. Tarjimada ham asosiy mazmundan chetlashish hamda erkinlik asosida maqol tarkibidagi so'zlar emas, boshqa kontekstga mos so'zlar bilan tarjima qilishga urunilgan.

Keyingi maqolda esa so'zma-so'z tarjimaning namunasini kuzatish mumkin. Ammo iloji boricha tarjimaning ifodaviyligiga erishish uchun so'z qaytarilishlaridan saqlanishga harakat qilingan va natijada quyidagicha tarjima namunasi hosil bo'lgan: *Shahar darvozasini yopib bo'ladi, dushman og'zini yopib bo'lmaydi*<sup>43</sup>. *"Die Tore einer Stadt kann man schließen, doch nie den Mund des Feindes"*<sup>44</sup>.

"Boburnoma"da ishlatilgan xalq maqollari mavzuiy jihatdan xilma-xil bo'lib, turli nutqiy vaziyatlarda muallif uslubini ta'sirchan qilishga, qahramonlar xarakteri va voqealar tasvirini real ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Bobur Farg'onada o'zaro urushlarni avj oldirishning faol tashabbuskorlaridan biri bo'lgan Alido'st va uning o'g'li Muhammaddo'st haqida gapirar ekan, birinchisining yomonliklari evaziga oyog'iga kord chiqib azoblanib o'lganligini tasvirlaydi va Muhammaddo'st haqida shunday yozadi: *"Muhammaddo'st o'zbekka kirib edi. Filjumla yomon emas edi. Andin ham ko'rnamaklik qilib qochib, Andijonni ko'xpoyonlarig'a borib, yog'iyliklar va fitnalar angiz qildi. Oxir o'zbek iligiga tushdi. Ko'zlarini ko'r qildilar. "Ko'zlarini tuz tutti"ning bu ma'nosi bor emish*<sup>45</sup>.

**Tarjimada:** *Muhammed Dust lief zu den Özbeken über, wo es ihm sehr wohl erging. Aber er zeigte seinen Undank und floh später auch von den Özbeken in die Gebirgsgegend von Andidjan, wo er Feindseligkeiten und Aufruhr anzettelte. Zuletzt fiel er in die Hände der Özbeken, die ihm die Augen austachen. So ging das Sprichwort in Erfüllung: "Das Salz hat seine Augen verzehrt (Tuz uning ko'zlarini oqizib yubordi)"*<sup>46</sup>. Tarjimada asliyat mazmuni saqlangan deyish mumkin.

H.Dalov tarjimada har bir maqol uchun mos ekvivalent topishga, uning mazmunini iloji boricha to'liqroq yetkaza oladigan boshqa maqollarni berish yoki mazmun va milliy koloritni yo'qotmagan holda o'sha maqolni shakliy tarjima qilishga erishgan.

Mazkur bobning keyingi faslida "Boburnoma"da qahramonlar portreti tasviridagi uslubiy o'ziga xoslikni nemis tilida qayta yaratish masalalari tahlil qilingan.

<sup>41</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 115.

<sup>42</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 269.

<sup>43</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 117.

<sup>44</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 275.

<sup>45</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 77.

<sup>46</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 145.

Ma'lumki, Bobur Mirzo o'zining "Boburnoma" asarida har bir obrazning tashqi qiyofasi ya'ni portretini chizishga alohida ahamiyat beradi. Boburnoma asarida 1600 dan ziyod kishilarning nomlari keltirilgan. Ular ichida ko'plab tarixiy shaxslar, ya'ni hukmdor va amaldorlar, ilm fan va san'at namoyondalari va shoirlarning portretlari tasvirlangan. Z.M.Bobur tarixiy shaxslarning xarakterlarini ochib berishda hamda ularning qiyofalari va fazilatlarini yoritishda, ularning yashash tarzi va sharoitlaridan kelib chiqib, aniq iboralar asosida ifodalashga harakat qilgan. Uning portret yaratish borasidagi mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, "portret" fransuzcha so'z bo'lib, "tasvirlamoq" degan ma'noni beradi. "Portret – badiiy asarda personajlarning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi, ya'ni bo'y basti, rangi, yuz-ko'zi, kiyimi, tana holati va harakatlari, qiliqlari tasviridir"<sup>47</sup>.

Qahramon portreti tasviri uning suratini ko'rsatish uchun emas, balki ruhiy dunyosini anglash uchun ham ahamiyatlidir. Asarda xon, amir, beklarning ko'plab betakror portretlariga duch kelamiz. Ularning nasl nasabi, shakl va shamoyili, axloqi, jangu-jadallari, umarosi haqida aniq va qisqa ta'rif-tasvirlar beriladi.

H.Dalov o'z kitobida Anton P.Chexovning quyidagi fikrini keltirib o'tadi: "Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak-yuzi, kiyimi, qalbi, fikrlari"<sup>48</sup>. Asarda portret va peyzajning o'rni nihoyatda katta. Bu asarning badiiyligini ta'minlaydigan jihattir. "Boburnoma"da oltita tarixiy shaxslarning mukammal portreti to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlar berilgan.

Bular: Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Hisravshoh, Boysunqur Mirzo va Husayn Boyqarolardir.

Shu o'rinda Boburning otasi Umarshayx Mirzoning ta'rifi-tasviriga e'tibor qarataylik:

**Asliyatda:** *past bo'yliq, tegirma soqollik, qo'ba yuzluk, tanbal kishi edi. To'nni bisyor tor kiyar edi, andog'kim, bog' bog'laturda qornini ichiga tortib bog'latur edi, bog' bog'lag'ondin so'ng o'zini quya bersa, bisyor bo'lur erdikim, bog'lari uzulur edi.*

Uning axloq va atvoriga esa quyidagicha ta'rif beradi: *Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dag'i saxovaticha bor edi, xushxulq va harrof va fasih, va shirinzabon kishi erdi, shujo' va mardona kishi edi*<sup>49</sup>.

Ushbu tasvirda Umarshayx Mirzo qiyofasining barcha asosiy belgilari – kiyimni qanday kiyishidan tortib, ayrim shaxsiy fazilatlarigacha qamrab olingan. Bu o'rindagi chizgilar kichik bir viloyat hukmdorining har qanday dabdaba va xashamatlardan xoli bo'lgan oddiy hayotini, sodda va samimiy qiliqlarini aks ettiradi.

**Nemis tilida:** *Omar Scheykh Mirza war nicht groß, aber wohlgenährt. Er hatte ein weißes Gesicht und einen buschigen Bart. Er trug einen sehr schmal geschnittenen Mantel, den er immer eng schnürte, dabei musste er immer den Bauch einziehen. Wenn er wieder ausatmete, passierte es oft, dass die Schnüre rissen.*

*Sein Benehmen und seine Eigenschaften: Er war sehr großzügig, und sein Benehmen dementsprechend. Er war ein gutherziger, feinfühliges, redseliger Mensch und zeigte sich als tapferer und kühner Mann.*

<sup>47</sup> Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2018. – Б. 63.

<sup>48</sup> Dalov H. Babur-name. Herstellung und Verlag: BoD-Books on Demand, Norderstedt. – Printed in Germany, 2022. – S. 613.

<sup>49</sup> Захриддин Мухаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 37.

**Ma'nosi:** *Umarshayx Mirzo bo'yi past, lekin semiz (tanbal) kishi edi. Uning yuzlari oq va soqollari qalin edi. To'nni rosa tor kiyardi. Belbog' bog'laganda qornini ichiga tortib bog'latar, bog'lagandan so'ng o'zini qo'yib yuborsa ko'p hollarda bog'lari uzilib ketardi.*

Uning axloq va atvorini quyidagicha tasvirlaydi: *U olijanob ya'ni qo'li ochiq edi. Hulqi ham sahovaticha bor edi. Xushfe'l, sezgir, gapga chechan, jasur va mard ko'rinar edi.*

H.Dalov Umarshayx Mirzo portreti tasvirini tarjimada to'laqonli, ya'ni har bir so'zni o'z o'rnida ishlatishga harakat qilgan. Hattoki tanbal so'zini ham "wohlgenährt", so'zi bilan "semiz" ma'nosini anglatuvchi so'z orqali o'quvchiga tushunarli tarzda o'g'irgan. Chunki tanbal so'zi dangasa, ish yoqmas degan ma'noni ham beradi. O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha berilgan: "Tanbal" (forsa. erinchoq, yalqov) O'taketgan dangasa, yalqov<sup>50</sup> deb tavsiflangan. "Navoiy asarlari lug'ati"da esa "Tanbal – 1. Yalqov, dangasa; 2. Maj. Semiz, lo'ppi", deb berilgan<sup>51</sup>.

Bizningcha, "tanbal" so'zining lug'atda keltirilgan "dangasa", "yalqov" kabi ma'nolari Umarshayx uchun berilgan ta'rif emas. Tarjima matnini o'qigan har bir kishi tasavvurida Boburning otasi Umarshayx Mirzo harbiy qobiliyatga ega va janglarda ishtirok etgan kuchli, to'ladan kelgan baquvvat va mard kishi sifatida gavdalanadi. Ko'rinib turibdiki, Umarshayx Mirzoga berilgan "tanbal" sifati o'z o'zidan uning kuchli va baquvvat ekanligidan bir misol bo'la oladi. Bundan amin bo'lish mumkinki, Bobur ota-ona, qarindosh urug' va vaziru amirlarining yaxshi yomon sifatlarini yashirmay ro'y-rost yoritib beradi.

Tarixiy shaxslar siymosini, ularning shakl va shamoyilini mukammal yoritish, ayrim xatti harakatlarini voqealar jarayonida aks ettirish usuli Xusayn Boyqaro shaxsining talqinida ham yaqqol ko'rinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur tarixiy shaxslar orasida Husayn Boqaroga katta ehtimom bilan qaragan. U "Boburnoma"da Husayn Boqaroning shakl-shamoyili, axloq va atvori haqida to'liq ma'lumot beradi: *"Qiyiq ko'zluk, sherandom bo'yliq kishi edi. Belidin quyi inchka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lub edi, xushrang, qizil-yashil abrishimni kiyar edi. Qora ko'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonon iydlarda kichik sepech dastorni yap-yassi namoyon chirmab, qarqara o'tag'asi sanchib, namozg'a borur edi"*<sup>52</sup>.

**Tarjimada:** *Sultan Huseyn Mirza war ein Mann mit Schlitzaugen, stämmig, aber schmal gebaut. Auch als er schon ein reifes Alter erreicht hatte und sein Bart ergraut war, kleidete er sich noch in Gewänder aus hellroter oder grüner Seide und trug eine schwarze Lammfellmütze oder einen Kolpak (Pelzmütze). Manchmal begab er sich an einem Festtag zum Gebet und trug einen kleinen, flachen, nachlässig gewickelten und dreifach gefalteten Turban, der mit einer Reiherfeder geschmückt war.*

**Ma'nosi:** *Sulton Husayn Mirzo qisiiq ko'zli, gavdali, ammo ozg'in qomatli kishi edi. Keksalik yoshiga yetib, soqoli oqarib ketgan bo'lsa ham, u yorqin qizil yoki yashil ipakdan to'n kiyib, qora qo'zichoq terisidan qilingan bosh kiyim shapka yoki*

<sup>50</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. "Т" ҳарфи / А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006. – Б. 38.

<sup>51</sup> Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 592.

<sup>52</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. «Бобурнома». – Тошкент: Шарқ НМАК, 2002. – Б. 128.

*qalpok kiyib yurardi. Ba'zan ramazon bayram kunlarida kichkina, yap-yassi uch o'rama sallani chirmab va qarqara pati bilan bezatilgan holda namozga borardi.*

Tarjimaga e'tibor qaratsak "Qora ko'zi bo'rk" yoki qalpoq kiyardi. Shu joyda bo'rk so'zi nemis tiliga "Mütze" shaklida o'girilyapti vaholanki u olmon o'quvchisi uchun shapka yoki shlyapa degan ma'noni anglatadi. Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida ham "bo'rk" so'ziga. *Bo'rk-bosh kiyim; qalpoq yoki telpak, bo'rk*<sup>53</sup> shaklida izoh berilgan. H.Dalov tarjimaga jiddiy yondoshgan bo'lsada, mazkur o'rinda olmon o'quvchisi uchun tushunarli bo'lishini inobatga olib, sodda shaklda "Qora ko'zi terisidan tiqilgan bo'rk" deb yoniga izoh berganda maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. Chunki bo'rk milliy bosh kiyim hisoblangan. Tarixiy shaxslarning qiyofalari va fazilatlarini yoritganda, portret va ruhiyatlarini Bobur ularga nisbatan haqqoniy munosabatda bo'lish, ularning yashash tarzi va sharoitidan kelib chiqib, fe'l-atvorlarining eng muhim jihatlarini mumkin qadar aniq va ixcham iboralarda, lo'nda ifodalashga harakat qilgan.

"Boburnoma"dagi tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlar Boburning otasi Umarshayx Mirzo va uning atrofidagi o'n uch (13)amiri, Sulton Ahmad va uning o'n bir (11) amiri, Sulton Mahmud va uning olti(6) amiri, Husravshoh, Boysunqor mirzo hamda Husayn Boyqaro va uning o'ttiz to'rta (34) amirlariga berilgan tavsiflar doirasida olib borilgan psixologik tahlillar orqali shu narsa ma'lum bo'ladiki, kishilarning xarakter xususiyatlari hamda axloqiy psixologik sifatlari asar matnida tarixiy ma'lumotlarni to'ldiribgina qolmay asarning qimmatini va jozibasini oshiradi.

## XULOSA

1. "Boburnoma" nemis tiliga bir necha marta tarjima qilingan va tarjimadan tarjima qilish, qisqartirilgan tarjimalar natijasida asliyatdagi obrazlar to'la ochilmagan holatlar kuzatiladi. Ikki nemischa (A.Kayzer, Y.Klaprot) tarjimada Boburning o'ziga xos bayon uslubi birmuncha o'zgartirilgan, ilmiy-adabiy asardan ko'ra ko'proq quruq faktlar beruvchi memuarga aylanib qolgan; qisqartirishlar natijasida noto'g'ri fikr-mulohazalar, ma'no uzilishlari sodir bo'lgan. Mazkur xato va qusurlar, H.Dalovning 2016-yilda amalga oshirgan birinchi tarjimasida ham kuzatiladi, o'z navbatida, xato va kamchiliklarni to'g'ri tushungan tarjimon 2022-yilda yangi to'laqonli tarjimaga qo'l urib, to'g'ri yo'l tutgan.

2. "Boburnoma"ning avvalgi nemischa (A.Kayzer va Y.Klaprot) tarjimalarida Boburning o'ziga xos bayon uslubi birmuncha o'zgartirilgan, ilmiy-adabiy asardan ko'ra ko'proq quruq faktlar beruvchi memuarga aylanib qolgan, qisqartirishlar natijasida tamom noto'g'ri fikr-mulohazalar, ma'no uzilishlari sodir bo'lgan, asliyatdagi muallif nutqi jozibasi saqlanmagan va tarjimadan tarjimaga o'tgan sari Bobur uslubi yo'qolib borgan.

3. Jahon tarjimashunosligida tarjimadan tarjima masalasini salbiy baholaydilar. Ammo, ko'rinadiki agar tarjimon mohirlik bilan ish ko'rsa, tajribasini to'liq ishga solsa, tarjimonning bu shakli ham muvaffaqiyatli chiqishi mumkin. Bunday fikrni H.Dalovning tarjimalari misolida ham keltirish mumkin.

4. "Boburnoma" matnida sof milliy ruhdagi so'zlar, terminlar, iboralar, tarixiy va arxaik so'zlar ko'p miqdorda uchraydi ikkinchi bir tilda, ayniqsa tarjimadan-

<sup>53</sup> Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б. 346.

tarjima qilinganda bunday lisoniy birliklar mazmunini to'laqonli ifodalash masalasi ancha murakkab hisoblanadi. Shunday bo'lsada, H.Dalov tarjimasida turkiy xalqlargagina xos bo'lgan urf-odat, kiyim-kechak nomlari, tarixiy realiyalar, maqol va matallar o'z ta'sir doirasini kengaytirib, boshqa xalq hayotidan o'rin olishiga imkon yaratilgan.

5. Asarda qo'llangan maqollar "Boburnoma"ni ma'lum darajada mushohadalar bilan boyitgan, uning badiiy jihatdan yuksak bo'lishini ta'minlagan. Buning sababi, Bobur maqollarni bevosita xalq tilidan, bilvosita yozma manbalardan olgan. Shuning uchun H.Dalov mazkur maqollarni nemischaga o'g'irishda aksariyat hollarda asliyatga yaqinlashtirishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqqan.

6. H.Dalov sof milliy ruhdagi so'zlar, termin va iboralar, tarixiy va arxaik so'zlarni nemis tiliga o'g'irishda transliteratsiya, izohlash, sharhlash, tavsiflash usullarini qo'llash orqali asliyat mazmun-mohiyatini saqlashga, maqollarni nemischaga o'g'irishda esa adekvat tarjimadan foydalangan.

7. Olmon tiliga qilingan avvalgi tarjimalarda asliyatdagi muallif nutqi jozibasi saqlanmagan va tarjimadan tarjimaga o'tgan sari Bobur uslubi yo'qolib borganligiga guvoh bo'lamiz. Ammo, H.Dalov tarjimasida aynan muallif uslubini saqlab qolish, voqealar tasviridagi joziba va ta'sirchanlikning saqlab qolinganligini kuzatdik.

8. "Boburnoma" 1000 dan ziyod geografik nomlar: mamlakatlar, shaharlar, qal'alar, qo'rg'on, dashtlar, tog'lar, darralar, chashmalar, bog'lar, yaylovlar, o'tloqlar va boshqa joylarning nomlari qayd qilingan bir olam terminologik manba, qimmatli etnografik qomus sifatida mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi. Tadqiqot natijasida geografik nomlarning bir vaqtning o'zida ham tojikcha, ham forscha, o'zbekcha va ingliz, nemis, farang tillardagi lug'atini yaratish zarurat ekani ko'zga tashlandi.

9. Asarning nemischa tarjimalari orasida H.Dalov tarjimasi o'z o'rniga ega. Chunki, u tarixchi olim sifatida O'rta Osiyo hamda Boburiylar tarixi bo'yicha yaxshi bilimga ega va ana shu bilim tufayli "Boburnoma"dagi tarixiy o'ziga xoslikni teran angelaydi, bugungi kun G'arb olamida *Buyuk mo'g'ul imperiyasi* degan tushunchaga ham oydinlik kiritishga harakat qiladi.

10. "Boburnoma"da muallif barcha tarixiy, hayotiy voqealarni nozik did sohibi, so'z san'atkori sifatida tasvirlashga harakat qilgan. Natijada asar matnida yuzlab o'xshatish va metaforalar qo'llangan. H.Dalov tarjimasida o'xshatish va metaforalar kitobxonga tushunarli tarzda yetkazilgan va tarjimon matnning badiiyligini hamda obrazlilik, muallifning so'z qo'llash mahoratini saqlab qolishning uddasidan chiqqan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 ПРИ  
НАМАНАГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАМАНАГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**АБДУРАХМОНОВА ДИЛРАБОХОН КОДИРЖОНОВНА**

**ПРОБЛЕМЫ ОТРАЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И  
ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ  
“БАБУР-НАМЕ” В НЕМЕЦКОМ ПЕРЕВОДЕ  
(НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДА ГЕЛЬМУТА ДАЛОВА)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание  
и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2PhD/Fil4841.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.namdu.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" по адресу (www.ziyonet.uz).

**Научный руководитель:**

**Садиков Зоҳид Яқубжанович**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:**

**Абдуллаева Равияжон**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Сидиков Косим Абилович**  
кандидат филологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 19 » 09 2025 года в 15:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршоҳ, дом 161. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namd.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета. (зарегистрирована за № 1835). Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршоҳ, дом 161. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс: (99869) 228-85-02; (e-mail: info@namd.uz).

Автореферат диссертации разослан « 07 » 09 2025 года.  
(Протокол рассылки № 7 от « 19 » 09 2025 года).



**А.И.Зияев**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук (DSc),  
профессор

**Н.А.Мамаджанова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

**К.А.Сидиков**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, кандидат филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Развитие мировой переводческой науки и формирование нового поколения представителей переводческих школ в последние годы создают большие возможности для молодого поколения овладеть светскими знаниями. В области филологии было проведено множество исследований произведения «Бабурнаме» и его переводов на различные языки. Среди произведений, созданных в истории нашей страны, едва ли есть какое-либо другое, кроме «Бабурнаме», которое было бы переведено на иностранные языки так много и так хорошо. Историческая, научная и художественная значимость данного произведения, а также вопросы воспроизведения исторических и художественных образов в переводах стали основой для создания множества исследований со стороны английских, французских, немецких и русских бобуроведов. В этом контексте история Бабура и бобуридов, уникальность «Бабурнамы» как источника исторических, художественных, этнографических, культурных и географических данных играет особую роль.

На мировом уровне в исследованиях в области лингвистики (филологии) особое значение имеет сравнительное изучение переводов исторических произведений. «Бабурнаме» на протяжении многих веков привлекает внимание исследователей Востока и Запада из различных научных областей. С XVI века «Бабурнаме» была переведена на персидский, голландский, французский, английский, немецкий, испанский, китайский, арабский, японский, турецкий, русский, хинди, урду и более чем 30 других языков несколько раз, с публикацией комментариев и пояснений. В этом контексте актуальность научной работы объясняется необходимостью изучения роли «Бабурнамы» в истории и мировой литературе.

Ученые нашей страны исследовали лексику и стилистику «Бабурнамы», охватывающую различные области в историческом, литературном, лингвистическом и источниковедческом направлении. «Мы поставили перед собой величественную цель – заложить фундамент Третьего Ренессанса в нашей стране, для этого необходимо создать условия и среду, которые будут воспитывать новых Хорезмийцев, Беруни, Ибн Сине, Улугбеков, Навоий и Бобуров»<sup>1</sup>. С этой точки зрения важно начать изучение переводов произведений, которые полностью отражают наши ценности, а также изучение их адекватных переводов на немецкий язык и явления эквивалентности. Благодаря многовековым трудным усилиям учёных, личность Бабура в историческом и литературном плане ярко заявила о себе во всей своей полноте. Следовательно, изучение и пропаганда узбекской классической и современной литературы на международном уровне, анализ этой многогранной темы в тесной связи с самыми важными процессами, происходящими сегодня в мировой литературе, и выработка необходимых научно-практических выводов, а также определение будущих задач имеют большое значение.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

Результаты данного диссертационного исследования в определенной степени служат целям реализации задач, обозначенных в указах президента Республики Узбекистан №ПУ-5850 «О мерах по коренному повышению статуса и роли узбекского языка как государственного» от 21 октября 2019 года, «Мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики» от 20 октября 2020 года, №ПУ-6097 «О подтверждении концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране масштабных реформах» от 5 июня 2018 года, а также других нормативно-правовых документов, относящихся к данной деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан 1. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

#### **Степень изученности проблемы**

В мировом литературоведении и переводоведении ученые разных областей добились больших результатов в изучении общественной деятельности и научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура. Многие из его работ были опубликованы, переведены, исследованы и созданы научно-популярные произведения. Среди них такие произведения, как «Бабур-тигр», «Империя Великих Моголов», «Из жизни замечательных людей» и более 30 очерков, романов и научно-исследовательских работ в серии «Правители Индии».

Английские востоковеды, в частности, глубоко изучили жизнь и творчество Бабура Мирзы и создали десятки монографий, литературных трактатов, специальных энциклопедий и словарей о великом полководце, шахе и поэте. В результате в мировой науке появилась область, которую можно назвать «бабуроведением».

Такие узбекские ученые, как Г.Саломов, М.Холбеков, Н.Отажонов, Х.Болтабоев, А.Иброхимов, С.Хасанов, З.Холманова, Х. Кудратуллаев, Д.Мухаммадиева, И.Кадыров, Б.Маматов, Г.Сотимов, Л.Ходжаева, Г.Ходжаев, Р.Каримов, М.Собиров, А.Турсунов, М.Муминова, своими научными исследованиями и трудами внесли большой вклад в развитие бабуроведения<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 166; Холбеков М. Узбекско-французские литературные связи / в аспекте перевода, критики и восприятия: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самарканд, 1991. – С. 23; Отажонов Н. «Бобурнома» жахон адабий жараёнида: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 220; Болтабоев Х. Мумтоз сўз кадри. – Тошкент, 2004. – Б. 138; Хасанов С. Бобурнинг “Рисолайи аруз” асари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.143; Холманова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 40; Кудратуллаев Х. Бобур армони. – Тошкент: Шарк, 2009.

